



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



O'ZGA TILLARDA OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING TURLI METODIK USULLARI

Jalilova O'g'iloy Shamsiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zga tillarda og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlanirishga qaratilgan yangi metodlar tahlil qilinadi. Ko'plab til o'rganuvchilar grammatikani yaxshi tushunishsa ham, gapirish bosqichida qiynalishadi. Bu ko'nikma amaliyotga asoslangan bo'lgani uchun uni faqat darslik orqali emas, balki faol kommunikatsiya orqali rivojlanirish zarur. Bunda til o'rganuvchilar og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlanirishlari uchun foydali va samarali usullar keltiriladi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutqni rivojlanirish, o'z-o'ziga qarab gapirish, mobil ilovalar, so'z boyligini oshirish, gapirish ko'nikmasi, reading aloud.

Kirish:

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda chet tillarini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Turli tashkilotlarda ishga qabul qilish uchun chet tillarini bilish darajasi haqidagi sertifikatlar talab qilinmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada til o'rganishda juda muhim hisoblangan "og'zaki nutq" qobiliyatini rivojlanirish to'g'risida so'z yuritiladi. "Gapirish ko'nikmasi" qolgan 3 ta qism ya'ni, "yozish", "o'qish" va "tinglab tushunish" ga qaraganda ancha murakkab sanaladi. Chunki bunda o'quvchi fikr yuritib, o'sha fikrini o'z ona tilida emas, balki boshqa bir tilda ifodalashi lozim. Bu bosqichda yuqori natijaga erishish uchun davomiy o'qib-o'rganish va turli xil usullardan foydalanish darkor. Quyida esa turli xil an'anaviy va zamonaviy metodlar haqida so'z yuritiladi.

"Speak the language you are learning"-o'rganayotgan tilingizda suhbatlashning. Chet tillarini o'rganishda sheriklar bilan o'sha tilda suhbat qurish yaxshi samara beradi. Chunki o'quvchi o'rganayotgan tilida qanchalik ko'p gapirishni mashq qilsa, begonalar bilan ham shunchalik erkin so'zlashishni o'rganadi.

"Talking to yourself in the mirror"- ko'zguda o'z-o'ziga qarab gapirish. Agar birga til o'rganayotgan partnyoringiz bo'lmasa, ko'zguga qarab biron-bir mavzuda gapirib, gapirish ko'nikmangizni rivojlaniring. Bu usul orqali og'zaki nutqingizni shuningdek, omma oldida dadil so'zlay olish, o'ziga bo'lgan ishonch, suhbatdoshingizni ko'ziga qarab gapira olish qobiliyatizingizni rivojlanira olasiz.

"Practicing speaking with mobile applications"-mobil ilovalar bilan gapirishni mashq qilish. Mobil ilovalar til o'rganish jarayonini interaktiv va individual tarzda olib borish imkonini beradi. Til o'rganuvchilar ulardan xohlagan vaqtida va istalgan joyda foydalanishlari mumkin. Shuningdek mobil ilovalar foydalanuvchining talaffuzi, lug'at boyligi, grammatikasini baholab bera oladi. Bu ilovalarga misol qilib ELSA SPEAK, CAMBLY, DUOLINGO kabilarni keltirish mumkin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



"Picture narration"-rasmni tasvirlab berish.Bunda o'quvchi biror rasm asosida voqeani tasvirlab beradi.Bu tasviriy tafakkur,strukturaviy nutq va bog'lovchi vositalardan foydalanishni rag'batlantiradi.

"Peer teaching"-partnyoriga dars berish,o'qitish.Bu usulga ko'ra,o'quvchilar bir-biriga dars o'tadilar yoki yangi mavzuni tushuntirib beradilar.Bu usul ularning og'zaki ifoda va izohlash malakasini mustahkamlaydi.

"Read aloud"-Oksford universitetining til va kognitiv psixologiya sohasidagi professori Kate Nationning fikriga ko'ra,o'quvchi baland ovozda o'qiyotganda og'zaki va yozma til o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi.Bu esa grammatik strukturani va leksik birlıklarni og'zaki nutqqa o'tkazishga xizmat qiladi.

"Increasing lexical knowledge"-Paul Nationning fikricha,so'z boyligini oshirish uchun o'quvchilar ko'p miqdorda mazmunli o'qish va takroriy ko'rish orqali so'zlarni matnda o'zlashtirishlari zarur.U shuningdek so'zlar taqdimoti,chastotasi va qamrov tamoyillarini ishlab chiqqan.

"Don't afraid of making mistakes"- Brown.H.Douglasning fikricha,til o'rganishda xatolar tabiiy va zaruriy bosqich sanaladi.O'qituvchilar o'quvchilarga xato qilishdan qo'rmaslik muhitini yaratishi kerak,chunki xatolar orqali o'rganish yuz beradi.

Xulosa qilib aytganda,yuqoridaqgi usullar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishga va ularning fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.Har bir metodning "Gapirish" ko'nikmasini oshirishda ahamiyati katta.Chunki bu usullarning har biri interaktiv va qiziqarli bo'lib,o'quvchilarni zeriktirmaydi.Ular orasida kommunikativ yondashuvli usullar alohida o'ren tutadi va til o'qituvchilari metod tanlashda o'quvchilarning yoshi,darajasini hisobga olishlari muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nation,K.,&Snowling,M.J.(2004).Beyond phonological skills:Broader language skills contribute to the development of reading.Journal of Research in Reading,27(4),342-356.
2. Nation,I.S.P.(2001).Learning Vocabulary in Another Language.Cambridge University Press.
3. Brown,H.D.(2007).Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.).Pearson Education.
4. Bygate,M.(1987).Speaking.Oxford University Press.
5. Harmer,J.(2007).The Practice of English Language Teaching.Pearson Longman.

